

ONA TILI DARSLARINI 5E MODELİ ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

Turopova Orzibi Dalaboyevna

Toshkent viloyati Parkent tumani 26-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19053451>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan 5E modeli (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) ning metodik imkoniyatlari hamda uning ona tili darslarida qo'llanish xususiyatlari yoritib beriladi. Tadqiqotda 5E modelining bosqichlari asosida darsni loyihalash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, maqolada ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish, dars jarayonini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish hamda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashning metodik jihatlari tahlil etiladi. 5E modelining ona tili darslarida qo'llanishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish hamda bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini berishi ilmiy asosda yoritiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 5E modeli asosida tashkil etilgan ona tili darslari o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim metodik vosita bo'lib xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: 5E modeli, ona tili ta'limi, innovatsion pedagogika, interfaol metodlar, darsni loyihalash, o'quv faoliyati, bilish jarayoni, kommunikativ kompetensiya, muammoli ta'lim, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы организации уроков родного языка на основе современных педагогических подходов. В частности, освещаются методологические возможности модели 5Е (Вовлечение, Исследование, Объяснение, Разработка, Оценка), широко используемой в образовательном процессе, и особенности её применения на уроках родного языка. В исследовании рассматриваются вопросы построения урока на основе этапов модели 5Е, активизации познавательной деятельности учащихся, развития навыков самостоятельного мышления и формирования коммуникативной компетенции.

В статье также анализируются методологические аспекты использования интерактивных методов в обучении родному языку, организации учебного процесса на основе проблемных ситуаций и обеспечения активного участия учащихся. Научно доказано, что использование модели 5Е на уроках родного языка позволяет повысить эффективность образовательного процесса, развить творческое и критическое мышление учащихся и связать знания с практической деятельностью.

По результатам исследования установлено, что уроки родного языка, организованные на основе модели 5Е, служат важным методическим инструментом повышения активности учащихся, развития их навыков самостоятельного обучения и обеспечения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: модель 5Е, обучение родному языку, инновационная педагогика, интерактивные методы, разработка уроков, учебные мероприятия, познавательный

процесс, коммуникативная компетентность, проблемно-ориентированное обучение, эффективность обучения.

Abstract. This article analyzes the issues of organizing native language lessons based on modern pedagogical approaches. In particular, the methodological capabilities of the 5E model (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate), which is widely used in the educational process, and the features of its application in native language lessons are highlighted. The study considers the issues of designing a lesson based on the stages of the 5E model, activating students' cognitive activity, developing independent thinking skills, and forming communicative competence.

The article also analyzes the methodological aspects of using interactive methods in native language education, organizing the lesson process based on problem situations, and ensuring the active participation of students. It is scientifically proven that the use of the 5E model in native language lessons allows increasing the efficiency of the educational process, developing students' creative and critical thinking, and connecting knowledge with practical activities.

According to the results of the study, it was determined that native language lessons organized on the basis of the 5E model serve as an important methodological tool in increasing student activity, developing their independent learning skills, and ensuring the effectiveness of the educational process.

Keywords: 5E model, native language education, innovative pedagogy, interactive methods, lesson design, learning activities, cognitive process, communicative competence, problem-based learning, educational effectiveness.

Yurtimiz taraqqiyotining demokratik-huquqiy, fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan dadil bormoqda. Iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, xalq ta'limi sohalarida islohotlar va yangilanish jarayonlari bosqichma-bosqich, izchillik bilan amalga oshirilmoqda. vatanimiz taraqqiyotida hal qiluvchi muammolar: xalqimizning ming-ming yillik qadriyatlarini, pedagogik merosini o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonini milliyalashtirish, jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning ustivorligini ta'minlash va ma'naviy tarbiya nazariyasini, amaliyotini takomillashtirish; yoshlar ongiga milliy mafkura, milliy g'oyani singdirish, vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun va metodikasini ishlab chiqish; jahon andozalariga mos ta'lim tizimini yaratish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, pedagogik kadrlarni hozirgi davr talabi asosida ta'lim-tarbiya ishiga tayyorlash, pedagogik texnologiya bilan qurollantirish kabilar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mosravishda me'yoriy hujjatlar, o'quvmetodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, ona tili fanida o'quvchilarni ijodkorlikka, analitik va tanqidiy fikrlashga undash ta'limning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orasida *5E modeli* (*Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate*) alohida ahamiyatga ega. Bu model o'quvchilarni o'quv jarayonining markaziga qo'yadi va bilimlarni izchil o'zlashtirish, mustahkamlash, shuningdek, amaliy faoliyat orqali mustaqil kashf qilish imkonini beradi.

1962-yilda amerikalik o'qituvchi Myron J. Atkin va amerikalik fizik Robert Karplus "tadqiqot", "terminologiya" va "tushunchalarni qo'llash" ni o'z ichiga olgan yaxshi o'rganish tsiklini ishlab chiqdilar. Natijada o'quvchilarda fanlarga qiziqish paydo bo'ldi, savollar bera boshladi va ular o'z fikrlariga tanqidiy nazar bilan qarash zarurligini aniqladilar. Atkin-Karplus modeli 5E ta'lim modelining asosidir. U 1987-yilda Amerikaning BSCS Science Learning ta'lim va tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

5E modeli o'rganishning konstruktivistik nazariyasiga asoslanadi, bu odamlar tajribadan bilim va ma'no yaratishni taklif qiladi. Faoliyatni tushunish va mulohaza yuritish orqali o'quvchilar yangi bilimlarni oldingi g'oyalar bilan uyg'unlashtira oladilar. Mavzu bo'yicha ekspert beverli jobrakning so'zlariga ko'ra, "so'rovga asoslangan o'rganish, faol o'rganish, tajriba asosida o'rganish, kashfiyotlar o'rganish va bilimlarni shakllantirish kabi ta'lim harakatlari konstruktivizmning o'zgarishidir".

Sinfda konstruktivizm o'qituvchilardan o'zlarining ta'lim yondashuvlarida so'rov, izlanish va baholashni shakllantirishni talab qiladi. Bu ko'p jihatdan o'qituvchining o'quvchilarga yangi tushunchalarni o'zlashtirishda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi vositachirolini o'ynashini anglatadi.

5E modeli - bu o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun ishlatiladigan metodik yondashuv. Bu model 5 bosqichga bo'linadi, har biri o'quvchining o'qish jarayonidagi turli ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan:

1. **Engage (Qiziqtirish).** O'quv siklining birinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning oldingi bilimlari haqida tushunchaga ega bo'lish va bilimdagi kamchiliklarni aniqlash ustida ish olib boradi. O'quvchilar o'rganishga tayyor bo'lishi uchun kelgusi tushunchalarga qiziqishni kuchaytirish ham muhimdir. Bu bosqichda o'quvchilarda yangi mavzu bo'yicha qiziqish uyg'otish, ularni mavzuga jalb qilish kerak. Bu bosqichda ko'pincha savollar berish, mavzu bilan bog'liq qisqacha video yoki hikoya ko'rsatish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

2. **Explore (O'rganish).** O'quvchilarni mustaqil yoki guruhda ishlashga undash. Bu bosqichda o'quvchilar mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib boradi, turli eksperimentlar o'tkazadi yoki muammolarni yechishadi. O'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish kerak.

3. **Explain (Tushuntirish).** Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan materialni tushuntiradi. O'quvchilar o'zlarining fikrlarini ifodalashadi va o'qituvchi mavzuga oid tushunchalarni to'liqroq izohlaydi.

4. **Elaborate (Kengaytirish).** O'quvchilarga yangi bilimlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini berish. Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llashadi, masalan, yangi vaziyatlarga moslashtirish, boshqa mavzular bilan bog'lash yoki murakkabroq masalalar yechishni boshlash.

5. **Evaluate (Baholash).** O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash. Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazadilar, o'qituvchi esa o'quvchilarning tushunishini baholash uchun turli baholash metodlarini, masalan, testlar, savollar, yoki muhokamalarni ishlatadi.

Ona tili darslarida 5E modelidan foydalanish nafaqat grammatik va lingvistik bilimlarni egallashni, balki o'quvchilarning muloqot qobiliyatini, ijodiy fikrlashni va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar dars jarayonida o'z qobiliyatlarini namoyon etib, ta'limga faol jalb etiladi. Shuningdek, 5E modelidan foydalanish o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning o'quv jarayoniga nisbatan qiziqishini oshiradi. Quyida har bir bosqichni ona tili darslariga moslashtirish misollari keltirilgan:

Qiziqtirish (Engage). darsning ushbu bosqichida o'quvchilar mavzuga qiziqtiriladi.

- mavzu bo'yicha qisqa hikoya yoki qiziqarli savol bilan darsni boshlash;
- Vizual materiallardan (rasmlar, videolar) foydalanish;
- O'quvchilarning hayotiy tajribalariga asoslangan savollar berish.

O'rganish (Explore). Bu bosqichda o'quvchilar mustaqil izlanish orqali yangi bilimlarni o'zlashtiradilar. masalan:

- Guruhlarga bo'linib, matnni o'rganish va tahlil qilish;
- Lug'at bilan ishlash yoki o'quvchilarga kichik topshiriqlar berish;
- O'quvchilarni badiiy matnlar asosida ma'no izlashga undash.

Tushuntirish (Explain). Ushbu bosqichda o'quvchilarga mavzu yuzasidan yangi tushunchalar beriladi va mavzu haqida to'liq ma'lumotlar taqdim etiladi:

- matndagi asosiy g'oyalarni izohlash;
- Grammatik qoidalarni amaliy misollar bilan tushuntirish;
- O'quvchilarning savollariga javob berish va muhokama qilish.

kengaytirish (Elaborate). Bu bosqichda o'quvchilar mavzuni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. masalan:

- Asar yoki matn bo'yicha qisqa insho yozish;
- Guruh bilan kichikrolli o'yinlar tashkil qilish;
- yangi bilimlarni boshqa fanlarga integratsiya qilish;

baholash (Evaluate). dars jarayonining so'nggi bosqichi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashga qaratilgan:

- testlar, kichik yozma ishlar orqali bilimni baholash;
- Guruh ishlariga baho berish va tahlil qilish;
- O'quvchilar o'z fikrlarini ifoda etishlari uchunrefleksiya tashkil qilish.

Ona tili darslarida 5E modeli qo'llashning afzalliklari o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va faol ishtirokini ta'minlaydi, o'quv jarayonini izchil va tizimli tashkil etishga yordam beradi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonida yangi texnologiyalar va interaktiv metodlarni joriy etishga imkon yaratadi. Ona tili fanini o'qitishda 5E modelidan foydalanish grammatik qoidalarni yod olish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning til tuzilishi, so'z va gap birliklarining ahamiyatini anglash, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish jarayoniga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu yondashuv:

- o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish,
- til materiallarinireal hayot bilan bog'lab o'rganish,
- interfaol va amaliy mashg'ulotlar orqali bilimlarni mustahkamlash,
- o'zaro muloqot va muhokama orqali fikr bildirish qobiliyatini oshirish imkoniyatlarini beradi. Bu model orqali tashkil etilgan darslar an'anaviy yodlash va qayta hikoya qilish uslubidan farqliravishda, faol ishtirok, tajriba va tahlil qilish orqali bilim olish imkonini yaratadi.

Shuning uchun, 5E modeli zamonaviy pedagogikaning eng samarali yondashuvlaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tanner KD. Order matters: using the 5E model to align teaching with how people learn. Cbe Life Sci Educ. 2010 fall;9(3):159-64. doi: 10.1187/cbe.10-06-0082. PMID: 20810945; PMCID: PMC2931660.
2. Lena ballone Duran, Emilio Duran. The 5E Instructional model: A learning Cycle Approach for Inquiry-based Science teaching. The Science Educationreview, 3(2), 2004
3. Prof. Dr. Abdulkadir TUNA, Prof. Dr. Ahmet KAÇAR. *The effect of 5e learning cycle model in teaching trigonometry on students' academic achievement and the permanence of their knowledge*. International journal on new Trends in Education and Their Implications january 2013 volume: 4 Issue: 1 Article: 07 ISSN 1309-6249
4. "Kreativ pedagoglar uchun tuzib chiqilgan eng sara maslahatlar va qo'shimcha metodlar to'plami". Toshkent – 2022
5. Nilufar Rasulova ona tili darsligi tarkibidagi topshiriqlar va mashqlar tahlili. Toshkent – 2020.
6. Xamdamiy, U. (2017). Ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalar.
7. Tog'ayev, F. (2016). Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirish.